

## O'ZBEKISTONDA ADVOKATLIK INSTITUTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Jalilov Nodirbek Komil o'g'li**

**Toshkent davlat yuridik universitetining  
mustaqil izlanuvchisi**

**gmail: jnbek93@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15076553>**

**Anonatsiya:** Maqolada O'zbekiston sharoitida advokatlik institutining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Advokatlik faoliyatining tarixiy shakllanishi va uning o'zgarishlari, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin amalga oshirilgan islohotlar, advokatlik institutining mustahkamlanishi va uning jamiyatdagi roli yoritiladi. Ushbu maqolada advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uni tartibga soluvchi qonunlar va normativ hujjatlar, shuningdek, advokatlarning huquqiy pozitsiyalarini ta'minlashda amalga oshirilgan yuridik islohotlarning ahamiyati ko'rsatilgan. Advokatlik institutining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, bu institutning jamiyatdagi o'rne va ahamiyati haqida batafsil fikrlar keltirilgan. Maqola O'zbekiston huquq tizimining yangilanishi va rivojlanishining muhim aspektlarini yoritib, kelajakda advokatlik institutining yanada samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan takliflarni ishlab chiqadi.

**Kalit so'zlar:** Advokatlik instituti, rivojlanish bosqichlari, O'zbekiston, islohotlar, huquqiy tizim, advokatlar, jamiyat, yuridik islohotlar.

Advokatura instituti har qanday huquqiy davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida advokatura va advokatlik faoliyati prinsiplarining shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat milliy huquq tizimining rivojlanishi, balki xalqaro huquq normalari va standartlarining ta'siri ostida ham kechgan.

Hozirgi zamon huquqi tizimida inson huquq va erkinliklari hamda ularni himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu masalalarni hal elishda advokaturaning muhim o'rin tutishi inson huquqlari bilan bog'liq xalqaro hamda milliy huquq hujjatlarda tobora aniq aks ettirilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ham o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir"<sup>1</sup> deya ta'kidlagan.

Bizga ma'lumki, huquqshunoslik kasblari orasida advokatura sohasi alohida o'rin tutadi. Advokatura va uning faoliyat prinsiplarini mamlakatimizda rivojlanish tarixini bilish, ushbu sohani yanada puxta o'rganish, har tomonlama tahlil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimiz siyosiy hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar

advokatura tizimini ham zamon bilan hamnafas rivojlantirish, qonunchilik huquqiy bazasini takomillashtirib borishni talab etmoqda. Bundan tashqari dunyo miqyosida

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. 105-bet.

ro'y berayotgan modernizatsiyalashuv jarayoni mamlakatimiz aholisini ham qamrab olayotganligi, oxirgi 4-5 yil davomida jadal olib borilayotgan demokratik islohotlar tufayli fuqarolar ongining o'sib borishi va huquqiy madaniyatining yuksalishi oqibatida ular tomonidan siyosiy-huquqiy faollikning kuchayib borishi hamda o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qilish va advokat yordamidan foydalanishga bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi singari holatlar advokaturani zamon talablariga javob beradigan asosda rivojlantirish masalasini keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, advokatura institutining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi uzoq tarixga borib tarqaladi<sup>2</sup>.

Qisqacha qilib aytganda, turli huquqiy tizimlar va mamlakatlardagi advokatura institutlarini qiyosiy huquqiy tahlil yordamida o'rganish birinchidan, hozirgi zamonda advokaturaning roli, funksiyasi va rivojlanish qonuniyatlarini tushunib yetishga, ikkinchidan, advokatlik faoliyatining huquqiy asoslarini, advokatlik faoliyati amaliyotini takomillashtirishga, uchinchidan, advokatura instituti bilan bog'liq nazariy bilimlarni o'rganish, advokatlarning umumiy va kasbiy madaniyatini oshirishga ko'maklashadi.

Har bir davlatni rivojlantirish, uni isloh qilish hamda rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish uchun harakat qilinayotganda albatta kamchiliklar bo'lishi tabiiy hol. Bu kamchiliklarni hamma sohalar kabi advokatura tizimida ham uchratish mumkin<sup>3</sup>.

Dastavval, advokaturaning kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'rta asrlarda, masalan, cherkovlar himoya huquqidan foydalanishgan – ularning suddagi vakillari dastlabki paytlarda rahbar ruhoniylar bo'lishgan bo'lsa, keyinchalik qonunlarga tushunuvchi ruhoniylar ichidan olingan begona shaxslar ham vakillik qilishgan. “Advokat” so'zi lotin yozuvidan olingan va ikki xil ma'noga ega:

- a) sud ishlari bo'yicha ishonchli vakil, suddagi himoyachi;
- b) nimaningdir yoki kimningdir himoyasi uchun og'zaki yoki yozma ravishda chiquvchi<sup>4</sup>.

Yuridik kasbning kelib chiqishi, uning turli tarixiy davrlardagi amaliy tajribasini o'rganish nafaqat o'tmishdagi xatolar takrorlanishiga yo'l qo'ymaydi, balki advokatlik maqomining, shu jumladan, uni tamoyillarining uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuridik fanda qiyosiy-huquqiy tahlil turli huquqiy tizimlar, shu jumladan advokaturani o'rganishning muhim usullaridan biridir. Tahlilning bu turini qo'llash turli huquqiy tizimlardagi advokaturaning umumiy, alohida va mushtarak xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Advokatura institutini o'rganishda qiyosiy-huquqiy tahlilning turli shakllari qo'llaniladi. Advokatura tarixini o'rganishda tarixiy qiyosiy-huquqiy tahlil qo'llanilib, advokaturaning rivojlanishi qonuniyatining tarixiy jihatlarini o'rganiladi. Ko'pchilik holatlarda esa qiyoslash predmeti turli davlatlardagi amaldagi advokatura instituti bo'ladi<sup>5</sup>.

Dastlab, Qadimgi Yunoniston va Rimning keng ko'lamli tajribasiga asoslanib, Yevropa davlatlari ushbu huquqiy institutga yangicha mazmun berib, uni fuqarolar va ularning

<sup>2</sup> Inagamova M.M., Ro'zieva N.N. Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari, Journal of New Century Innovations. Volume–36\_Issue-1\_September\_2023.B.-182-186.

<sup>3</sup> Dadasheva A.A.. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro institutlar (2023) Innovatsionnye issledovaniya v ovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90

<sup>4</sup> Boykov A.D. Kapinus N.I. Advokatura Rossii: Uchebnoe posobie.- M.:IMiP, 2000

<sup>5</sup> Nabiyevna, N. D. . (2024). Improvement of lawyer activity, national and foreign experience. fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya jurnali | journal of science, education, culture and innovation, 3(4), 7–11. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/635> 7-b

uyushmalariga huquqiy ko'mak uchun universal vositaga aylantirgan.

Advokatura va uning faoliyatini tashkil etish prinsiplari, ularning mohiyati va maqsadini belgilovchi asosiy mezonlar mazkur davr konsepsiyasi hamda siyosiy tizimiga mos ravishda doimiy ravishda o'zgartirilib borildi.

Advokatlik kasbining ahamiyati o'sha davrning ko'plab taniqli huquqshunoslari tomonidan yuqori baholangan. Xususan, E.V.Vaskovskiy yozganidek, "Yevropa fani tomonidan ishlab chiqilgan prinsiplar bo'yicha yangi tizim va sud ishlarini yuritishning joriy etilishi bilan adolatning avvalgi kamchiliklari va yaralari ularni yuzaga keltirgan tizim bilan birga afsonalar maydoniga chekindi. Yangi institutlar "tezkor, adolatli va rahmdil" sud g'oyasini o'z kuchiga ko'ra amalga oshirdi. Odil sudlovni amalga oshirish ilgari erishib bo'lmaydigan cho'qqilarga ko'tarildi, jamiyat birinchi marta o'z huquqlarini munosib va ishonchli qo'llarda himoya qilishni ko'rdi"<sup>6</sup>.

Sud protsessida advokatlarning muhim roli bo'yicha G.B.Sliozbergning ham fikrlari o'rinlidir. U ta'kinlaganidek, "Bizning barcha sud amaliyotimiz nafaqat sudyalari, balki advokatlari, ularning yordamchilari yoki adliya organlari faoliyatining natijasidir. Qonunimiz uchun juda muhim bo'lib qolgan butun himoya amaliyoti advokaturaning faol, deyarli doimiy ishtirokida ishlab chiqilgan"<sup>7</sup>.

O'zbekistonda davlatchilik va huquq tarixi uch ming yildan ko'proq vaqtga to'g'ri keladi, garchi mamlakatda advokatlik instituti ancha keyin shakllana boshlagan bo'lsa-da. O'zbekistondagi ilk davlatlar hisoblangan Baqtriya, Xorazm, So'g'd, Parfiya, Yunon-Baqtriya, Kushon podsholigi va boshqalarda davlatchilik asoslari shakllangan.VII asr boshlarida O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinib, arab xalifaligi tarkibiga kiritildi<sup>8</sup>.

Bir guruh olimlar tomonidan O'zbekistonda advokatura institutining rivojlanishini turli mezonlar bo'yicha bosqichlarga bo'lishgan. Masalan, O'zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lishgan: yuridik yordam institutining yuzaga kelishi (muftilar – musulmon huquq bilimdonlari sifatida); O'zbekistonda advokatura institutining yuzaga kelishi; advokatura institut tashkiliy huquqiy asoslarini isloh qilish; mustaqil O'zbekistonda advokatura institutini isloh qilish; advokatura institutini yanada isloh qilish<sup>9</sup>.

Boshqa bir guruh olimlar advokatura instituti rivojlanishini quyidagi uch bosqichga bo'linishini qayd etishgan va ushbu bosqichlarda alohida e'tiborga molik jihatlariga to'xtalib o'tishgan: 1-bosqich – 1990-1996 yillar; 2-bosqich – 1997-2007 yillar; 3-bosqich – 2008-2017 yillar<sup>10</sup>.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi raisi Alim Ernazarov advokatura institutining rivojlanishni bosqichlarga bo'lmagan bo'lsada, Yangi O'zbekistonning mustaqil advokaturasiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tadrijiy

<sup>6</sup> Васильковский Е.В. Организация адвокатуры. Т. 1. Исследование принципов организации адвокатуры. СПб.: Типография П.П. Сойкина, 1893. С. 384.

<sup>7</sup> Слиозберг Г.Б. Адвокатура за 25 лет // Журнал гражданского и уголовного права. 1889. №9. С. 32.

<sup>8</sup> Scientific aspects and trends in the field of scientific research International scientific online conference/ O'zbekistonda advokatura institutining rivojlanish tarixi /Muxammadova Marjona Zavqiy qizi,176-b

<sup>9</sup> Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: TDYU, 2019. - B. 39.

<sup>10</sup> Саломов Б., Давлятов В., Пардаев С., Сайфиева Г. Ўзбекистонда адвокатура: жорий ҳолати ва ривожланиш истиқболлари (таҳлилий маълумот). - Тошкент: Baktria press, 2020. Б. 8.

rivojlanishi haqida tizimli o'zining mulohazalarini bildirgan<sup>11</sup>.

Aytishimiz mumkinki, o'rta asrlar kohinlar sudlari qoshida maxsus xizmatchilar, musulmon huquqi bilimdonlari – muftiylar va a'lamlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ular sudya (qozi), da'vogar, ayblovchi, javobgar yoki sudlanuvchining topshirig'iga ko'ra, rivoyat, ya'ni bahsning namunaviy hal etilishini yoki shariat me'yorlariga ko'ra ayblovni tuzadilar. Chunonchi, Buxoro amirligi bosh qozisi (qozikalon) huzurida 12 nafar mufti xizmat qilgan, ular tashrif buyuruvchilarga, qoziga murojaat qiluvchiga shikoyat tuzishda va boshqa amaliy yozuvlarni tayyorlashda mukofot evaziga yordam berganlar<sup>12</sup>.

Sovet advokaturasiga asos solingan kun mohiyatan 1922-yil 26-may, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi "Advokatlik to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlagan kun edi. Bu nizom ham albatta O'zbekiston hududi uchun ham amal qilardi. Unda viloyat adliya boshqarmalari qoshida jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha himoyachilar kollegiyalarini tashkil etish ko'zda tutilgan, mazkur hay'atlarning tarkibi va faoliyati, ular rayosatlarining vazifalari, himoyachilarning mehnatiga haq to'lash tartibi va boshqalar tartibga solingan.

O'zbekiston SSR tashkil etilganidan so'ng, respublikaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan adliya organlarining izchil tizimini yaratish bo'yicha ish olib borildi. Bu to'la ravishda advokaturaga ham tegishlidir. 1925-yilda O'zSSR Sovetlari MIQ respublika Adliya xalq komissariati to'g'risidagi Nizomni qabul qilib, unda jumladan, Adliya xalq komissariati himoyachilar hay'atlari faoliyatiga rahbarlik qilishi ko'zda tutilgan edi.<sup>13</sup>

Yana shunisi e'tiborga loyiqki, advokaturaning shakllanishining ushbu tarixiy bosqichida advokatura prinsiplari hali to'g'ridan-to'g'ri qonun hujjatlarida mustahkamlanmagan edi.

Davrning hamda mamlakatdagi qonunchilik o'zgarishi davomida advokatlik hamda ushbu sohaning o'zagi bo'lmish uning prinsiplari ham o'zgarish hamda rivojlanishda bo'lib borgan. Sobiq Sovet advokaturasining yuqorida ko'rsatilgan rivojlanish bosqichlari O'zbekiston SSR advokaturasiga ham xos hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston SSRda advokatura hamda uni prinsiplarining tarixi o'ziga xos bo'lib, davlatning tarixiy rivojlanishi muayyan shart-sharoitlarining xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi.

M.X.Rustamboyev ta'kilashicha, Turkiston o'lkasida, shuningdek, Buxoro amirligida, Xorazm xonligida shariat (musulmon huquqi) va odat (odat huquqi) asoslarida faoliyat ko'rsatgan qozilar va biy feodal sudlari jinoyat va fuqarolik ishlarini advokatlarning ishtirokisiz ko'rganlar.<sup>14</sup>

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, advokatlik faoliyatining dastlabki davrida advokatlik va advokatura faoliyatining eng asosiy prinsipi bo'lmish mustaqillik prinsipi o'z mohiyatidan ko'ra pastroq darajada bo'lgan.

1936-yilda Ittifoq Respublika Adliya Xalq Komissarligi tashkil etilishi bilan O'zbekiston SSR Adliya Xalq Komissarligi tarkibida sud himoyasi va aholiga huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi tashkil etildi. Bu bo'lim butun respublika miqyosida advokatura faoliyatini tashkiliy boshqarish yuklangan yagona organga aylandi. 1936-yilda O'zSSR advokaturasida 186 nafar

<sup>11</sup> Эрнazarов А. Янги Ўзбекистоннинг мустақил адвокатураси тадрижий ривожланмоқда // Advokat, №4. 2021. - Б. 3-10.

<sup>12</sup> Г.Абдумаджидов. Развитие адвокатуры в Узбекистане. // История развития права на территории Узбекистана. Материалы научного семинара, организованного Фондом им. К.Аденауера и ТГЮИ. Ответ.ред. Г.Абдумаджидов, А.Егамбердиев. – Т. Адолат. 2007. – С.204

<sup>13</sup> Саркисянц Г.П. Адвокатура советского Узбекистана. -Т.: FAN, 1972. - В. 15-21

<sup>14</sup> Rustambayev M.X., Nikiforova E. N Huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik - T.: TDYUI, 2005. - R. 475.

advokat faoliyat ko'rsatishi nazarda tutilgan bo'lsa, aslida (shartli va stajorlarni hisobga olgan holda) 127 nafar advokat faoliyat ko'rsatar edi. O'sha paytda respublika advokaturasida bor-yo'g'i 33 nafar oliy yuridik ma'lumotli, 24 nafar yuridik maktab va kurs ta'limiga ega bo'lgan kishi ishlagan.<sup>15</sup>

SSRning 1934-yil 1-dekabrdagi va 1937-yil 22-sentabrdagi favqulotda qonunlari bilan uzil-kesil rad etildi. Bu qonunlar mohiyatan "aksilinqilobiy jinoyatlar", terroristik tashkilotlar, terroristik aktlar, shuningdek zararkunandalik va qo'poruvchilik to'g'risidagi ishlarni suddan tashqari, himoyachi jalb qilmay tekshirish va ko'rib chiqish belgilandi.<sup>16</sup>

1961-yil 30-mayda O'zbekiston SSR Oliy Soveti advokatura to'g'risidagi yangi nizomni tasdiqladi, unga ko'ra advokatlar kollegiyalari advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilarning ixtiyoriy birlashmalari ekanligi belgilab qo'yildi.

Ushbu Nizom qabul qilinganidan keyin 10 yil o'tib, 1972-yilga kelib, 442 nafar advokat O'zSSR advokatlar kollegiyalariga a'zo bo'lgan, ulardan 353 nafari oliy yuridik ma'lumotga, qolganlari esa adliya organlarida o'rta va ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan. Shuningdek, 1979-yilda SSSRning "SSSR advokati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi, uning asosida O'zbekiston SSRning 1980-yil 12-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati to'g'risidagi nizom" (1961-yil) yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu nashr SSSR qonuni va 1961-yildagi Advokatura to'g'risidagi Nizom qoidalari bilan amalda bir xil edi. Biroq, ushbu qonunchilik konstitutsiyaviy normalarga asoslanganligi sababli eskisi bilan farq qilagan. Ushbu nizomning qabul qilinishi bilan advokatlarning o'zlari tashabbusi bilan advokatlar hay'atlarini tuzish imkoniyati paydo bo'ldi, garchi hay'at tuzish to'g'risidagi taklif uni tasdiqlash uchun Adliya vazirligiga yuborilishi kerak edi<sup>17</sup>.

Umuman olganda, advokatura institutining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. O'zbekistonda ham advokatura institutining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari bir necha yuz yillik tarixga ega bo'lsa ham uning rasman institut sifatidagi sud-huquq sohasidagi o'zni O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingach, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan advokatura tizimida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi.

Bir guruh olimlar tomonidan O'zbekistonda advokatura institutining rivojlanishini turli mezonlar bo'yicha bosqichlarga bo'lishgan. Masalan, O'zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lishgan:

yuridik yordam institutining yuzaga kelishi (muftilar – musulmon huquq bilimdonlari sifatida);

O'zbekistonda advokatura institutining yuzaga kelishi; advokatura instituti tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilish; mustaqil O'zbekistonda advokatura institutini isloh qilish; advokatura institutini yanada isloh qilish.<sup>18</sup>

Boshqa bir olimlar esa O'zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanishini shartli ravishda besh bosqichga bo'lishadi. Xususan, "Birinchi bosqich – yuridik yordam

<sup>15</sup> Васи́кова М.С. Ўзбекистонда адвокатуранинг ярим асрлик юбилейи. – 1972 йил

<sup>16</sup> Петрухин И.Л. Правосудие: время реформ. М.: Наука, 1991. – С. 31

<sup>17</sup> "O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, 2022-yil 30-noyabr | scientists.uz, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7366406>, 508-b

<sup>18</sup> Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: TDYU, 2019. - B. 39.

institutining yuzaga kelishi (muftilar – musulmon huquqi bilimdonlari sifatida); ikkinchi bosqich – O‘zbekistonda advokatura instituti yuzaga kelishi; uchinchi bosqich – advokatura instituti tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilish bosqichi; to‘rtinchi bosqich – mustaqil O‘zbekistonda advokatura institutini isloh qilish bosqichi; beshinchi bosqich – advokatura institutini yanada isloh qilish bosqichi<sup>19</sup>.

Bizga ma’lumki, advokatlik faoliyatini davlat organlari, avvalo adliya organlari va sudlardan, shuningdek mahalliy ijroiya organlaridan erkinligi va mustaqilligini kengaytarib borish asosiy masalardan biri hisoblanadi. Qonunchilikdagi islohatlar hamda tegishli ilmiy izlanishlar natijasida malakali yuridik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirishning yangi jihatlar paydo bo‘lmoqda.

A.R.Matmurotovning fikricha, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab shu kunga qadar advokat maqomiga ega bo‘lishga qo‘yilgan talablarning maqbullashishi, murakkablashishi va takomillashishi qabul qilingan qonunchilik hujjatlari hamda kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar asosida bosqichma-bosqich o‘zgarib borgan<sup>20</sup>.

Hozirda, O‘zbekiston Respublikasida advokatura fuqarolik jamiyatining asosiy va muhim institutlaridan biri bo‘lib, uning zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq Konstitutsiyaviy vazifa yuklatilgan. Shu bois, Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq sud-huquq tizimining ajralmas bo‘g‘ini hisoblangan advokatura institutini isloh qilish, demokratik prinsiplarga asoslangan kuchli, mustaqil advokatura tizimini barpo etishga alohida va doimiy e’tibor qaratib kelindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ko‘p sohalarda bo‘lgani kabi advokatura sohasida ham ma’lum o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, 1996-yil 27-dekabrda “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonun qabul qilinguniga qadar O‘zbekistonda advokatura sohasi 1980-yil 12-noyabrdagi “O‘zbekiston SSR advokaturasi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tartibga solingan. Nizomning I-moddasiga muvofiq, “ ... sovet advokaturasining asosiy vazifasi fuqarolar va tashkilotlarga odil sudlovni amalga oshirish, sotsialistik qonuniylikka rioya etish va uni mustahkamlash, fuqarolarni sovet qonunlarini aniq va so‘zsiz bajarish, xalq boyligini avaylab-asrash, mehnat intizomiga rioya qilish, boshqa shaxslarning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatiga, sotsialistik jamiyat qoidalariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat”. Nizomning birinchi moddasidanoq shuni ko‘rishimiz mumkinki, Sobiq Ittifoqda shaxs manfaatlaridan ko‘ra davlat manfaatlari ustunlikka ega bo‘lgan<sup>21</sup>.

Yurtimiz siyosiy hayotida ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar advokatura tizimini ham zamon bilan hamnafas rivojlantirish, qonunchilik huquqiy bazasini takomillashtirib borishni talab etmoqda. Bundan tashqari dunyo miqyosida ro‘y berayotgan modernizatsiyalashuv jarayoni mamlakatimiz aholisini ham qamrab olayotganligi, oxirgi 4-5

<sup>19</sup> “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali 2181-4325 <https://ilmfanvatalim.uz/> № 11/ <https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/issue/view/13/9>

<sup>20</sup> Matmurotov, A. (2022). Ўзбекистонда адвокатура институтининг ривожланиш босқичларида адвокат мақомига эга бўлишга қўйилган талаблар таҳлили. Сотрудничество ташкентского государственного юридического университета и палаты адвокатов в совершенствовании адвокатского института, 1(1), 19–29. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/improvement-law-institute/article/view/16666>

<sup>21</sup> Qodirova Go‘zal Qodir qizi. (2023). O‘zbekistonda advokatura: kecha va bugun. yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(06), 111- <https://doi.org/10.5281/zenodo.8013664>.

yil davomida jadal olib borilayotgan demokratik islohotlar tufayli fuqarolar ongining o'sib borishi va huquqiy madaniyatining yuksalishi oqibatida ular tomonidan siyosiy-huquqiy faollikning kuchayib borishi hamda o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qilish va advokat yordamidan foydalanishga bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi singari holatlar advokaturani zamon talablariga javob beradigan asosda rivojlantirish masalasini keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, advokatura institutining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi uzoq tarixga borib tarqaladi<sup>22</sup>.

1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi bu nuqsonlarning barchasi bartaraf etildi, himoyachining jinoiy ishni ko'rib chiqish jarayonida qatnashish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. Advokatura to'g'risidagi qonunchilikning isloh qilinishi, mamlakat ijtimoiy-davlat hayotining boshqa sohalaridagi islohot kabi, bosqichma-bosqich, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi darajasiga qarab o'tkazilmoqda<sup>23</sup>.

Hozirda Yangi O'zbekiston sharoitida "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan ustuvor tamoyil asosida islohotlar davom etilmoqda. Ushbu ezgu maqsadlar asosida xalqimiz yangidan-yangi istiqbollar, kelgusi muhim yo'nalishlar belgilab berilmoqda. Mazkur ulug'vor maqsadlardan biri sifatida advokatura institutini har tomonlama rivojlantirish, advokat mustaqilligini ta'minlash, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda malakali huquqiy xizmatlar ko'rsatishning yangi bosqini yaratishni ko'rish mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashning samarali institutlaridan biri sifatida advokaturaning o'rni va ahamiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz siyosiy hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar advokatura tizimini ham zamon bilan hamohang tarzda rivojlantirish, qonunchilik huquqiy bazasini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan to shu kungacha jamiyat hayotining barcha sohaları kabi sud-huquq tizimining ajralmas qismi bo'lgan advokatura tizimi ham uzluksiz ravishda rivojlanib, takomillashib bordi.

Bundan tashqari, bugungi kunda fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish dolzarb masalaga aylanib borayotganligi sabab, advokatura institutini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

<sup>22</sup> Inagamova M.M., Ro'ziyeva N.N. Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari, Journal of New Century Innovations. Volume– 36\_Issue-1\_September\_2023.B.-182-186.

<sup>23</sup> Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019.43b